

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOBOYEVA SITORA RO'ZIMAHMATOVNA

O'ZBEKISTONDA YOQILG'I ENERGETIKA MAJMUI TARIXI
(XX-XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida)

07.00.01.–O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz-2023

UDK: 94:620.9(575.151) “XX/XXI”

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление авторефарата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

Boboyeva Sitora Ro‘zimahmatovna

O‘zbekistonda yoqilg‘i energetika majmui tarixi (XX - XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida).....3

Бобоева Ситора Рузимахматовна

История топливно-энергетического комплекса Узбекистана (на примере Сурханского оазиса в начале XX - XXI вв.).....25

Boboeva Sitora Ruzimakhmatovna

The history of the fuel energy complex in Uzbekistan (the example of the Surkhan oasis at the beginning of the XX th - XXI st centuries).....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOBOYEVA SITORA RO'ZIMAHMATOVNA

O'ZBEKISTONDA YOQILG'I ENERGETIKA MAJMUI TARIXI
(XX-XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida)

07.00.01.-O'zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1218 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat Pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tersu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lif tarmog'i portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'afforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor
To'xtayev Abdug'ani Qilichovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «14» 04 soyat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (99876) 221-74-55, faks: (376) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz). Termiz davlat universiteti, tarix fakulteti (faollar zali).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (131 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri, TerDU Barkamol Avlod ko'chasi, № 43-uy. Tel.: (99876) 224-15-82, faks: (376) 221-74-55, 221-71-17 e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «28» 03 kuni tarqatildi.
(2023-yil «28» 03 dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.N. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.

X.E. Xolmo'minov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent.

T.R. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rmosari, t.f.d., dotsent.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv hamda integrallashuv sharoitida iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan yoqilg‘i-energetika majmuasining ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa dunyo aholisining ijtimoiy turmushida elektr energiyasi va yoqilg‘i mahsulotlariga bo‘lgan talab kun sayin oshib borishini hisobga olib, yoqilg‘i-energetika majmuasini barqaror rivojlanishining innovatsion va infratuzilmaviy mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada e’tibor qaratishni talab qilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoy, Germaniya kabi davlatlar o‘rtasida arzon va tugamaydigan energo resurslarni izlash va yangi yoqilg‘i sanoati konlarini topish borasida hamkorlik asosida ilmiy izlanishlar rivojlanmoqda. Jumladan, yoqilg‘i-energetika majmuasini rivojlanishi, taraqqiyoti va uning tarixi borasida AQSh (Harvard University, New York University), Singapur (Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC)), Fransiya (International Energy Agency (IEA)), Angliya (World Energy Council (WEC)) va boshqa davlatlardagi yirik ilmiy tadqiqot muassasalarida ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi taraqqiyot strategiyasidagi iqtisodiy islohotlar tufayli yoqilg‘i sanoatni jahon andozalari asosida modernizasiya qilish, yangi konlarni, shamol, quyosh, suv elektr manbalarni aniqlash, yog‘ilg‘i sifatini tubdan yaxshilash, tejash, eksport salohiyatini oshirish mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochilmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta’minalash uchun “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, O‘zbekiston energetika tizimining qo‘sni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta’minalash, sanoat tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish kabi masalalar amalga oshirilmoqda¹.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2021-yil 24-iyuldaggi PQ-5193-son “Surxondaryo viloyatida quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori²,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni // www.lex.uz.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyuldaggi PQ-5193-son “Surxondaryo viloyatida quvvati 1500-1600 MVt bo‘lgan bug‘-gaz elektr stansiyasi qurilishini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2022 yil 14 yanvardagi PQ-85-son “Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida quvvati 456,6 MVt bo‘lgan fotoelektr stansiyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori // www.lex.uz.

2022-yil 14- yanvardagi PQ-85-son “Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida quvvati 456,6 Mvt bo‘lgan fotoelektr stansiyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori³, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi VMQ-899-son “2019-2022 yillarda elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori⁴ soha faoliyatini takomillashtirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи: Tadqiq etilayotgan mavzu shu kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti sifatida olinmagan bo‘lsa-da, o‘z tarixshunosligiga ega hisoblanadi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda O‘zbekistonda sanoat sohasi tarixini tadqiq etishda, izlanishlar olib borishda ilk natijalarga erishilmoqda. Ammo mazkur mavzu bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham yetarlicha. XX-XXI asr boshlarida O‘zbekiston, xususan, Surxon vohasida yoqilg‘i energetika majmui tarixi yuzasidan maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Vohaning yoqilg‘i-energetika tarixi hamda tarmoqlarida amalga oshirilgan islohatlar va ularning natijalariga oid ilmiy tadqiqotlarni davriga qarab, quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganildi:

1. Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqot va nashr etilgan asarlar.
2. Mustaqillik yillarida Surxon vohasida energetika-yoqilg‘i sohasi tarixini tadqiq qilish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari.

Sovet davrida elektrlashtirish tarixini yaratish borasida ko‘plab fundamental asarlar yaratilgan. Ularga G.A.Shister, Sh.N.Ulmasbayev, N.M.Mo‘minov, X.Djurayev, S.K.Ziyadullayev, A.Manoxin kabilarning asarlarini kiritish mumkin⁵. Bularning aksariyati monografiya tarixiy-partiya hamda umumtarixiy

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-yanvardagi PQ-85-son “Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida quvvati 456,6 Mvt bo‘lgan fotoelektr stansiyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori // www.lex.uz.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi 899-son “2019-2022 yillarda elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori // www.lex.uz.

⁵ Зиядуллаев С.К., Манохин А. Социалистическая промышленность советского Узбекистана.; 25-летию образования УзССР. -Ташкент, 1949; Улмасбаев Ш.Н. Промышленноэ развитие советского Узбекистана. – Ташкент, 1958; Mo‘minov N.M. Sovetlarning O‘zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1959; История рабочего класса Узбекистана (в трех томах), Т.1. – Ташкент: Наука, 1964; Sovet O‘zbekistonli ishchilar sinfining tarixi. - Toshkent: Fan, 1974; Рабочий класс Узбекистана в период развитого социализма. -Ташкент:Фан, 1974; O‘zbekiston SSR tarixi, 3-4 том.-Toshkent: Fan, 1971; Джураэв Х. Промышленность Узбекистана. Темпы, структура, эффективност. – Т., Узбекистан, 1974; Шистер Г.А. Промышленные рабочие Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 1975; Зиядуллаев С.К. Индустрия Советского Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 1984.

mazmunda yozilgan. Bundan tashqari yoqilg‘i-energetika majmui tarixiga oid nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan⁶, monografiyalar nashr qilingan⁷ va davriy matbuot sahifalarida maqolalar e’lon qilingan⁸.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoqilg‘i energetika sanoati tarixini o‘rganish, xususan, Surxondaryo viloyati tarixi bilan bog‘liq tadqiqot ishlari olib borildi va ko‘plab ilmiy ishlar nashr qilindi. Ushbu qismga A.Xamidov, A.Mavlonov, S.Tursunov, E.Qobulov, A.To‘xtayev, G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov, E.Axmedov, B.Raximov kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin⁹.

⁶ Шамрай Н.Г. Проблемы электрификации страны и их исследование в историко-партийной литературе: 1917-1985 гг.: Автореф. дисс...д-ра ист. наук. – М., 1990; Матниязов М. Деятельность Компартии Узбекистана по электрификации республики в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг): Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент: ТашГУ, 1965; O’sha muallif. Осуществление ленинской программы электрификации в республиках Средней Азии и её социальные последствия: Дисс.. док. ист.наук. – Ташкент: ТашГУ, 1989; Джуракулов О. История создания и развития газовой промышленности Узбекистана. – М., Т., 1967; Дехканов А.Т. Рабочие факультеты Узбекистана в период строительства социализма (1920-1938 гг.): Автореф. Дисс.. канд. ист. наук. - Ташкент, 1974; Шадманкулов И.П. Деятельность Советов Узбекистана по развитого промышленности республики (1933-1941 гг): Автореф. дисс.. канд.ист.наук. – Т., 1985; Темиров У. Освещение проблемы индустриализации Узбекистана в Советской исторической литературе. Автореф. канд. ист. наук. - Т.,1991; Saidboboeva G.N. Turkiston o‘lkasini elektrlashtirish tarixi (XIX asr oxiri-XX asrning birinchi choragi): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. - Toshkent, 2020.

⁷ Десятчиков Б.А. Электрификации Узбекистана за 25 лет. – Ташкент, 1949; Труды Государственной комиссии по электрификации России (ГОЭЛРО). Документы и материалы. – М.: Сосекгиз, 1960; Экономическая жизнь СССР. Хроника и фактов 1917–1965. Книга первая 1917–1950. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1967; Д.Р.Салихов. Материалы к 50 летию Советской власти. Промышленность, транспорт, связь и капиталное строительство в Сурхандаринской области за 50 лет - Термиз 1967; Хўжаев А. Ўзбекистон нефть ва газ конлари. – Тошкент: Фан, 1973; Аминов А.А.Нефтеперерабатывающая промышленности Средней Азии. Ташкент: Узбекистан, 1974; Джуракулов А.Д. Развитие газовой промышленности Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974; Xalqlar do‘sstligi bayrog‘i ostida – Toshkent: O‘zbekiston, 1978; Джуракулов А.Д. Деятельность КПСС по развитию газовой и нефтяной промышленности Средней Азии. – Ташкент, 1980; Jo‘raqulov O. Qudratli energiya manbai. – Toshkent, 1980; Mavlonov I. Yangi texnika va tabiiy gazdan foydalanish samaradorligi. – Toshkent, 1980; Ливитин З.С. История нефтяной промышленности Узбекистана развитие отрасли формирование кадров. – Ташкент: Фан, 1985; Ливитин З.С.Ходжиматов А.А. История нефтяной промышленности Узбекистана. – Ташкент: Мехнат, 1985; Закиров А., Белокопитов В., Чегринский Ю. Топливно-энергетический комплекс Узбекистана. – Ташкент, 1986.

⁸ Дурмашкина В. Предварительные итоги работ госпромышленности Средней Азии в 1924-1925 г. И первом квартале 25-26 г. //Народное хозяйство Средней Азии, 1926, №3; Alamov X. O’n yil ichida sanoatimiz: Sanoatga endi ega bo‘ldik: Elektrlashtirish; Sanoat tuzish ishlari; Sanoatimizning istiqboli haqida //Qizil O‘zbekiston. – 1927. – 7 noyabr; Дворников Д. Кадры угольной промышленности//Партработник. -1931, № 10; Исаакян А.А. На путях крупной нефтяной промышленности// Социалистическое строительство Средней Азии.-1933 № 4; Gubkin. Xovdak-O‘rtta Osiyo nefti uchun. Ilg‘or Surxon uchun gazetasi, 1934 yil 14 sentyabr; Фомина Л.В. Осуществление плана ГОЭЛРО и электрификация промышленности в восстановительный период (1921–1925 гг.) //Очерки по истории народного хозяйства СССР. Статистический сборник. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1959; Avliyoqulov M. Yer osti boyliklari xalqqa. / Qashqadaryo haqiqati, 1980, 31 iyul; Sa’dullayev B. Gazni olish osonmi // Fan va turmush, № 9, 1984; Jo‘raqulov O. Harorat manbai: kecha, bugun, ertaga. // Hayot va iqtisod, № 4, 1990.

⁹ Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1991; Хамидов А. История энергетика и энергетических предприятий Узбекистана. – Ташкент, 1991; Mavlonov A. Neft gaz koni geologiyasi. – Toshkent, 1992; Tursunov S. Denov yog‘ ekstratsiya zavodi tarixidan lavhalar. – Denov,

Shuningdek, davriy matbuotda yoqilg‘i-energetika majmui tarixiga oid qator tadqiqotlar e’lon qilindi. Jumladan, X.Raupovning maqolasida O‘zbekistonda ishchilar o‘rtasidagi ixtirochi va ratsionalizatorlik harakati tarixi, J.Ergashevaning maqolasida mintaqada gaz sanoatining ahvoli to‘g‘risida, M.Xayrullayevning maqolalarida esa neft va gaz sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rni, Sh.Qodirov maqolasida Boysun ko‘miri, A.Qodirov esa yangi gaz koni haqida turkum maqolalar nashr etganlar¹⁰.

Mavzuning tarixshunosligiga oid asarlar va tadqiqotlarning tahlili natijasi shuni ko‘rsatadi, O‘zbekiston, xususan lokal jihatdan Surxon vohasining yoqilg‘i-energetika tarixi yaxlit, atroflicha hamda o‘zaro bog‘liklikda o‘rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuning o‘rganilishi dolzarb ekanligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirish muammolarini kompleks tadqiq etish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Surxon vohasi yoqilg‘i energetika sanoatining XX-XXI asr boshlaridagi faoliyatini, tizimdagи islohotlar jarayonini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: quyidagilardan tashkil topgan:

- Surxon vohasida elektr tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga doir masalalarni manba va adabiyotlarni qiyoslash asosida tahlil etish;

1992; Qobulov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – Termiz; Jayxun, 1993; To‘xtaev A. Ulug‘ Vatan urushigacha bo‘lgan yillarda Surxondaryoda elektrlashtirish. – Termiz, 1993; O‘sha muallif. Surxondaryo viloyatini elektrlashtirish tarixidan (1946-1960 yy). – Termiz, 1994; O‘sha muallif. Surxondaryo viloyatini elektrlashtirish tarixidan (1960-1965 yy); - Termiz, 1995; Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994; Tursunov S., Pardaev T. Unutilmas jasorat. – Toshkent, 1995; Mirzaev Z., Qobulov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi. – Termiz; Jayxun, 1996; Tursunov S., Qobilov E. va boshq. Surxondaryo tarix ko‘zgusida. – Toshkent: Sharq, 2001; Axmedov E.A. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2002.; Tursunov S., Qobulov E. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004; Tursunov S., To‘xtayev A. Jarqo‘rg‘on tarixi. – Toshkent: Fan, 2008; Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – Toshkent: Fan, 2009; Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – Toshkent; Akademnashr, 2011; Tursunov S., Tursunov A. va boshq. Sherobod tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2014; Tursunov S., Eshboyev Q. Sho‘rchi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014; Tursunov S. va boshq. Qo‘mqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019; Tursunov S., Qobulov va boshq. Termiz tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019; Raximov B. O‘zbekistonning mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2018 yy.). – Toshkent: Yangi nashr, 2019.; Qobulov E. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida yengil va oziq-ovqat sanoatining rivojlanish tarixi: tajriba va muammolar (1946-1960 yy). – Toshkent: Tafakkur, 2020.

¹⁰ Raupov X.R. O‘zbekistonda ixtirochi va ratsionalizatorlar harakati tarixidan. – Toshkent davlat texnika universiteti Navoiy filiali ilmiy nazariy konferensiya materiallari. – Navoiy, 1993; Эргашева Ж. История “Голубого топлива” региона. – Фан ва турмуш, 1996. - № 5; Xayrullaev M. Neft va gaz mamlakatimiz sanoatining muhim tarmog‘i // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1998, № 2.; Qodirov Sh. Boysun mo‘jizasi / Hurriyat, 2014, 13 may; Qodirov A. Boysunda yangi gaz koni topildi /O‘zbekiston ovozi, 2019, 18 yanvar.

- Sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonda yoqilg‘i energetika sohasidagi siyosat va uning mohiyatini Surxon vohasi misolida ko‘rib chiqish, hamda yer osti qazilma boyliklarini o‘zlashtirish borasidagi dastlabki qadamlarning natijalarini asoslash;
- voha elektr tarmoqlarining faoliyatining bir tomonlama ixtisoslashuviga qaratilgan tadbirlar va uning xususiyatlarini ochib berish;
- yoqilg‘i sanoatida amalga oshirilgan tadbirlarda “sotsialistik qurilish” g‘oyasini ilgari surilishi va Markaz manfaatlariga mos yoqilg‘i sanoat tarmoqlarining barpo etilishini tahlil etish;
- Surxon vohasida rasionalizatorlik va ixtirochilik harakati, ishchilar ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, shuningdek bu harayonlarning jadallashtirilishi va uning natijalarini o‘rganish;
- Mustaqillik yillarda tadqiq qilinayotgan hududda energetika rivoji va muammolari, yoqilg‘i energetika sohasi ishchilar tarkibini shakllantirish hamda sanoat korxonalarini kadrlar bilan ta’minalash muammolarini tahlil etish;
- vohada istiqlol yillarda yoqilg‘i sanoati sohasi kadrlarini tayyorlashning umumiyligi holati hamda o‘rta maxsus ma’lumotli va oliy ma’lumotli muhandis-texnik kadrlarini shakllantirish jarayonini asoslash;
- Surxon vohasi yoqilg‘i-energetika tarmoqlari xodimlari tashabbus-korligi va moddiy-maishiy ahvolini arxiv, matbuot va ilmiy tadqiqot ishlaridagi taqqoslangan ma’lumotlar asosida tadqiqi etish.

Tadqiqotning obyekti: XX-XXI asr boshlari Surxon vohasida elektrlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning natijalarini ilmiy tahlili tadqiqot obyekti sifatida olindi.

Tadqiqotning predmeti Surxon vohasi elektr-yoqilg‘i tizimining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirilishi, ishchi kadrlar tayyorlash hamda ushbu jarayonlardagi ziddiyatli masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyosiy-tarixiy tahlil, og‘zaki tarix, xronologik izchillik va hududiy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vohada elektr energiyasini shakllanishi asosan chegara hududlardagi harbiy qismlarni, daryo portini, temir yo‘l stansiyalarni, ruslar yashaydigan aholi manzilgohlarini elektr energiyasi bilan ta’minalash, shuningdek, mudofaa salohiyatini oshirish, yer-suv islohoti haqidagi ma’lumotlar dalillangan;

voha yoqilg‘i-energetika majmuasini rivojlanishi, taraqqiyoti va uning tarixi borasida rusiyabon mutaxassislarini ishga jalb etish, ularni turmush tarzi, moddiy-ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish, mahalliy millat vakillarini elektr tarmoqlaridagi lavozimlarga jalb etmaslik, soha xodimlariga eng pastki ish haqi berilganligi, shuningdek, turmush tarziga e’tibor berilmaganligi haqidagi ma’lumotlar dalillangan;

vohadagi elektr tarmoqlarni ko‘paytirishdan maqsad, yangi yerkarni ochish, yangi o‘zlashtirilgan yerlarga suv chiqarish maqsadida suv nasoslarini elektr bilan ta’minalash, asosiy e’tibor paxta xom-ashyosi bilan bog‘liq jarayonlarga taalluqli ekanligi aniqlangan;

mustaqillikni dastlabki yillarda vohada elektr ta'minoti sohasidagi muammolarni bartaraf etishga oid islohotlar, yangi elektr tarmoqlarni qurilishi, zamonaviy elekt asbob uskunalarini olib kelinishi, elektrlashtirishni jahon andozalari asosida rivojlantirish, ushbu soha xodimlarni turmush tarzi, malakaviy bilim darajasini yuksaltirishga oid ma'lumotlar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxon vohasi yoqilg'i energetika tizimi tarixining turli yo'nalishlarida erishilgan natijalar tahlil etilib, aniqlangan muammolar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Surxon vohasini elektrlashtirish siyosati va uning oqibatlari sovet davri tarixiga doir bir qator yangi ma'lumotlar hamda hujjatlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan. Ulardan sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligi asoslangan.

Voha yoqilg'i energetika tarixiga doir xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili misolida XX-XXI asr boshlarida elektrlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning natijalari ko'rib chiqilib, ular asosida O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'yilgan masalalar XX-XXI asr boshlarida Surxon vohasi yoqilg'i energetika sanoati tizimining shakllanishi va faoliyatiga doir arxiv hujjatlari, jumladan, Respublika Milliy arxiv fondlaridagi hujjatlar, davriy matbuot materiallari asosida yozilgani, tadqiqot natijalari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotda tarix fani mutaxassislari tomonidan e'tirof etilgan zamonaviy yondashuv usullari qo'llanilganligi, ko'plab yangi tarixiy va ilmiy adabiyotlar, soha faoliyatiga doir huquqiy-normativ hujjatlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotlaridan foydalanilganligi, arxiv va boshqa birlamchi manbalarga asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi va chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar, yakuniy yoqilg'i energetika majmui tarixini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi, O'zbekistonning sovet davridagi yoqilg'i energetika siyosatining natija va oqibatlari yangi manba hamda materiallar asosida birinchi bor ilmiy iste'molga kiritilgan.

Tadqiqot ma'lumotlari va xulosalar, amaliy tavsiyalar o'quv muassasalarida sovet davri yoqilg'i-energetika sohasi tarixini o'qitishda, respublika oliv o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fani bo'yicha tarmoqli maxsus kurslar tashkil etish, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxon vohasida yoqilg'i energetika sohasi tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

voha yoqilg'i-energetika majmuasini rivojlanishi, taraqqiyoti va uning tarixi borasida rusiyabon mutaxassislarni ishga jalb etish, ularni turmush tarzi, moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish, mahalliy millat vakillariga ishonchsizlik yo'nalishidagi siyosat asosida elekt tarmoqlaridagi lavozimlarga jalb etmaslik, bu sohada eng pastki ish haqini berilganligiga oid ma'lumotlardan

«O'zbekiston tarixi» kanalining ko'rsatuvlari ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan («O'zbekiston tarixi» kanalining 2022-yil 7-noyabrdagi 22-429-44-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'plab yangi tarixiy va ilmiy adabiyotlar, soha faoliyatiga doir huquqiy-normativ hujjatlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotlaridan foydalanishga xizmat qilgan;

vohadagi elektr tarmoqlarni ko'paytirishdan maqsad, yangi yerlarni ochish, markazni paxta monopoliyasini kengroq amalga oshirish, yangi o'zlashtirilgan yerlarga suv chiqarish maqsadida suv nasoslarini elektr bilan ta'minlash, asosiy e'tibor paxta xom-ashyosi bilan bog'liq jarayonlarga taalluqli ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 21-noyabrdagi 89-02-916-son ma'lumotnomasi). Bu esa elektrlashtirish siyosati va uning oqibatlari sovet davri tarixiga doir bir qator yangi ma'lumotlar hamda hujjatlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan asosiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta (ulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorij jurnalida) maqolalar, xalqaro anjumanlarda 4 ta, 1 ta tezis respublika ilmiy anjuman to'plamida chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning tadqiqot qismi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslanib, muammoning o'rganilish darajasi, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi tavsiflangan. Shuningdek, olingan natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, tadqiqotning aprobasiyasi va dissertasiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi "**XX asr boshlaridan ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan yillarda Surxon vohasi energetika va yoqilg'i sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar**" deb nomланади. Ushbu bobda 1914-1945 yillarda vohada elektr tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, yer osti qazilma boyliklarini o'zlashtirish borasidagi dastlabki qadamlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bobning "1914-1945 yillarda vohada elektr tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishi" deb nomланувчи birinchi paragrafida 1914-1945 yillarda Surxon vohasida elektr tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga doir masalalar manba va adabiyotlarni qiyoslash asosida tahlil etilgan.

Energetika iqtisodiyotning, umuman, taraqqiyotning "qon tomiri" hisobланади. Shu bois mazkur sohani rivojlantirish o'ta dolzarb. Elektr energiyasi

ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini tabiiy gaz, mazut, ko‘mir tashkil etmoqda. Mazkur ko‘rsatkich hozir 43 foizga teng va ularning narxi dunyo bozorida qimmatlashib borayotgani inobatga olinsa, uning ahamiyati yanada oshadi¹¹.

XX asrning 20-30 yillarida butun mamlakt miqyosida, shu jumladan biz tadqiq etilayotgan Surxon vohasida ham faol tarzda elektrostansiyalar qurila boshlangan.

Surxon vohasi mamlakatimizning eng janubiy qismida joylashgan. U ayni bir paytda Markaziy Osiyoning ham janubiy qismida joylashgan bo‘lib, mamlakatimiz siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida alohida o‘rin tutadigan hududdir.

XX asrning 20-yillarida Surxondaryo okrugi 6 ta tumandan (Sariosiyo, Boysun, Denov, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Pattakesar) iborat bo‘lib, umumiyligi maydoni 17.780 kv. verstni tashkil etgan¹². Hudud asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan bo‘lib, bor-yo‘g‘i bitta paxta tozalash korxonasi, tegirmon, elektrostansiya uning sanoatini tashkil etgan. Mayda korxonalari 467 ta tegirmon, 103 ta sholi oqlagich va 812 ta moy juvozdan iborat bo‘lgan¹³.

Surxon vohasida sanoatni elektrlashtirish harakati XX asr boshlarida boshlangan edi. Termiz shahrining harbiy boshlig‘i podpolkovnik Krichinskiy elektr stansiyasi qurish to‘g‘risida mahalliy korxona egasi N.F.Nerodeskiyga buyurtma berdi va shartnoma imzoladi”¹⁴. Shuni qayd etish lozimki, aynan biz Termizni elektr toki bilan ta’minlash haqida fikr yuritayotgan davrda ya’ni 1913-yilda Rossiya aholisi jon boshiga 14 kvt soat to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 1 kilovatt soat to‘g‘ri kelgan xolos¹⁵.

1920-yilda Surxondaryo okrugida birinchi bo‘lib Sherobod shahrida 15 ot kuchiga ega bo‘lgan dizel dvigateli o‘rnatildi va uning elektr energiyasi harbiy qismni yoritish uchun xizmat qila boshladi.

1924-1925 yillarda Surxondaryo okrugining Termiz paxta tozalash zavodini 75 ot kuchiga ega bo‘lgan “Kolomna” dizelli dvigatel, 1925-1936 yillarda esa 150 ot kuchiga ega bo‘lgan “Man” tizimidagi, 260 ot kuchiga ega bo‘lgan “Meteor”, 20 ta ot kuchiga ega bo‘lgan “Krasniy proletariy” nomli dvigatellar, 1936-1939 yillarda 90 ot kuchiga ega bo‘lgan XTZ markali traktor dvigateli orqali elektr energiyasi bilan taminlab turildi¹⁶.

1927-yilning 17-iyulida Surxondaryo okrugi reja komissiyasi qabul qilgan 10-sonli qaroriga binoan Pattakesar, Termiz va Sherobod shahrida elektrostansiya qurish belgilandi¹⁷. Termiz shahrida 1928-yilga kelib 50 ot kuchiga ega bo‘lgan

¹¹ «Yashil energetika»: O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi ishlar rivojiga nima to‘sinqlik qilmoqda? // Xalq so‘zi. – 2020 yil, 9 iyun. - № 177 (15. 151).

¹² Материалы по раёнирование Узбекистана. Випуск 1. – Самарканд, 1926. – С.148.

¹³ Материалы по раёнирование Узбекистана. Випуск 1. – Самарканд, 1926. – С.150.

¹⁴ O‘z MA, I-1-Fond, 12-Opis, Yig‘ma jild-1864

¹⁵ Десятчиков Б.А. Электрификация Узбекистана за 25 лет. – Госиздат УзССР, 1949. – С. 3.

¹⁶ Surxondaryo viloyat davlat arxivsi. 12-fond, 1-yozuv, 12-ish, 15-varaq.

¹⁷ O‘z MA. 86-fond, 1-yozuv, 4197-ish, 64-varaq.

elektrostansiya qurilib ishga tushirildi¹⁸. Surxondaryo okrugida shu yilning o‘zida elektr energiya ishlab chiqarish 119 320 kilovattni tashkil qildi. Vohadagi birinchi elektr tarmoqlarini ishga tushirishda Petr Lesnov, Kuzma Golovanov, Nikolay Avgul, Pavel Bogdanov va boshqalarning xizmatlari katta bo‘ldi. 1932-yilga kelib Termiz shahrida shahar elektr tarmog‘i markazi vujudga keldi¹⁹.

1933-yilga kelib ikkinchi besh yillik (1933-1938 yy.) davrida Surxondaryo okrugida sanoat korxonalarini soni ham o‘sib bordi. Sanoat korxonalarini sonining o‘sib borishi Surxondaryo okrugida yangi elektrostansiyalarni qurish ehtiyojini keltirib chiqardi²⁰.

Shu bilan birga sobiq O‘zbekiston KP(b) va O‘zbekiston SSR XK ning 1933-yil qabul qilingan 122-sonli qarorida Qumqo‘rg‘on GES i qurilishiga Glavxlopkomning texnika kengashi tomonidan 1930-yil 1-iyulda tasdiqlangan loyihasini iqtisodiy va texnik jihatdan davom ettirishni Prezidium yig‘ilishi noto‘g‘ri deb topdi va VTESX hamda O‘zbek paxta kengashi (Uzsovxlopka) tashkilotidan qurilish ishlarini tezda to‘xtatish taklif qilindi²¹. Shu tariqa Qumqo‘rg‘on GES i qurilishi 1943-yilga qadar to‘xtatib qo‘yildi. 1935-yilga kelib Surxondaryo okrugida 10 ta elektr stansiyalari mavjud edi. Surxondaryo okrugida hammasi bo‘lib, bu elektrostansiyalar 1936- yilda 3 million 430 ming kilovatt soat elektr energiyasini ishlab chiqargan²².

1939-yilda Termiz elektr stansiyasi qurilishi uchun O‘zbekiston SSR XKS 1939-yil 7-iyundagi 91/5 sonli qarori bilan qurilishga 530 ming so‘mlik mablag‘ ajratdi. Qurilishni mablag‘ bilan taminlashning asosiy manbalari etib, bank krediti (bank krediti-250 ming so‘m) va mahalliy byudjet (mahalliy byudjetdan-280 ming so‘m) ajratish belgilandi²³.

1941-yil 6-martda Surxondaryo viloyati tashkil etilganidan keyin viloyat xalq xo‘jaligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan elektr tarmoqlari xodimlari faoliyatida ham yangi yuksalish davri boshlandi.

Surxondaryo okrugi elektr tarmoqlari xodimlari II Jahon urushiga qadar voha mehnatkashlari va ular ishlaydigan sanoat va qishloq xo‘jaligiga korxonalar elektr bilan ta’minlashda o‘zlarining xizmatlari bilan yordam ko‘rsatdilar²⁴. 1942-yilning oxiriga kelib vohada katta GES lar soni 11 tani, kichik GES lar soni esa 12 tani tashkil qilgan. Bu GES larda 1943-yilning 1- yanvariga kelib asosiy mablag‘ 3063 ming so‘nni tashkil qildi²⁵.

1944-yilga kelib Surxondaryo viloyati xalq xo‘jaligining qator zavod, fabrikalarida kam quvvatli va ko‘chma energostansiyalar qurildi²⁶.

¹⁸ Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 18 fond, 1-yozuv, 263-ish, 26-30 varaq.

¹⁹ Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 503-fond, 1-yozuv, yagona ish, 2-varaq.

²⁰ O‘z MA, 95-fond, 2-yozuv, 2237-ish, 14-varaq.

²¹ O‘z MA, 95-fond, 2-yozuv, 1516-ish, 35-36-varaq.

²² To‘xtayev A. Ulug‘ Vatan urushigacha bo‘lgan yillarda Surxondaryoda elektrlashtirish /TerDU prof-o‘qituvchilarining XXV ilmiy-nazariy konf. materiallari. – Termiz, 1993. – B. 100.

²³ O‘z MA. R-837-fond, 32-yozuv, 1444-ish, 196-varaq.

²⁴ Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 70-fond, 1-yozuv, 46-ish, 21-22 varaq.

²⁵ Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 334-fond, 1-yozuv, 633-ish, 7-8 varaq. Surxondaryo tarixi. T. 2004.

²⁶ Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 70-fond, 1-yozuv, 46-ish, 21-22 varaq.

Voha elektr tarmoqlari xodimlari nafaqat front orti, balki frontda ham haqiqiy vatanparvar ekanliklarini ko'rsatdilar. Bunday kishilar jumlasiga N.P.Leskov, B.Z.Zaripov, N.I.Dyakonov, A.Qurbanov, A.Sh.Solixov, B.M.Shtaturin, N.G.Sunsev, A.A.Abduraximov, G.X.Xolto'rayev, V.I.Semkin, M.X.Hakimov, X.X.Xudoyberdiyev, Ch.K.Karimov va boshqa jangchilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin²⁷.

Birinchi bobning “*Yoqilg'i sanoati uchun yer osti qazilma boyliklarini o'zlashtirish borasidagi dastlabki qadamlar*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Surxon vohasi misolida yer osti qazilma boyliklarini o'zlashtirish borasidagi dastlabki qadamlarning natijalarini asoslangan.

Surxon vohasida dastlabki neft va gaz konlarini aniqlash ishlari XX asrning boshlarida olib borilgan. 1912-yilda rus geolog olima ayoli Mixaylovskaya vohaning tog‘li hududlari va Sherobod tog‘larida hamda cho‘lli hududlar, xususan Jarqo‘rg‘on amlokdorligida yer osti zahira konlarini aniqlash borasida qidiruv ishlari olib borgan. Olib borgan qidiruv ishlari natijasida Hovdak, Kakaydi, Oqtosh, Qo‘shcheka va Dasman maydonlarida yer osti boyliklarining katta zahirasi borligini aniqlagan²⁸.

Surxon vohasida geologik qidiruv, ayniqsa neft va gaz zahiralarini o‘rganish hamda qazish ishlarining ilmiy, izchil va rejali yo‘lga qo‘yilishi XX asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, neft konlarini munazam qidiruv ishlari injelerlar V.Volniy va V.Karviskiylar, ulardan keyin esa bu ish geolog olim N.P.Tuayevlar nomi bilan bog‘liq. Ular markaz topshirig‘i bilan birinchi marta foydali qazilmalarni izlay boshladilar. Bu izlanishlar natijasida Ko‘xitang tog‘ining sharqida osh va kaliy tuzlari makonini topishdi.

1927-1928 yillarda Yurchi va Denov botqoqliklari o‘rganib chiqildi va bu botqoqliklarni quritish, qishloq xo‘jaligini yangi yerlar bilan ta’minlash va shu botqoqliklardan torf yoqilg‘isini olish masalasi o‘rganib chiqildi. 1930-1931 yillarda geolog N.P.Tuayev tomonidan Surxondaryo okrugida sanoat ahamiyatiga ega neft borligi aniqlandi²⁹.

Akademik Gubkin tomonidan Surxondaryo okrugidagi neft mahsulotidan analizlar olib, tekshirib ko‘riliши natijasida 1934-1935 yillarda Surxondaryo okrugining janubida neft zaxiralari borligi tasdiqlandi³⁰.

1933-yilda geolog N.P.Tuayev tavsiyasiga ko‘ra, Xovdak maydonida birinchi marta razvedka maqsadida qazish ishlari boshlab yuborildi. 1934-yil 6-fevralda 158 metr chuqurlikdan neft otilib chiqdi va sutkasiga 100 tonna neft olina boshlandi. O‘scha yili yana to‘rtta neft quduqlari qazilib, har biridan sutkasiga 75-100 tonnagacha neft qazib olina boshladi³¹.

Akademik I.M.Gubkin Surxondaryo okrugi gazetasida Xovdak faqat neft chiqqanligi uchun mashhur bo‘lib qolmasdan, balki u O‘rta Osiyo nefti tarixida

²⁷ Surxondaryo elektr tarmoqlari muzeyi materiallari

²⁸ Ishchi kadrlar o‘chog‘i. – Jarqo‘rg‘on, 1992. – B. 4.

²⁹ Parfenov G.V. Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi direktori qo‘lyozmasi. – B.3.

³⁰ Qobilov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – Termiz: Jayxun, 1993. – B. 12.

³¹ Sayfullo Tursunov., Abdug‘ani To‘xtayev., Zarifa Annayeva. Jarqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 70.

yangi sahifa ochganligi va u bundan keyin boshqa yangi qidiruv ishlarini amalga oshirishda yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilishini ta‘kidladi³².

Jarqo‘rg‘on rayoni markazidan sharqqa tomon Surxondaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan Kakaydi maydonlarida 1937-yildan qidiruv ishlari olib borildi. 1939-yildan Kakaydidagi ikki quduqdan neft olini boshladi va 1940 yildan esa Kakaydi neft koni ochilib sanoat nefti qazib olini boshlandi³³. Xovdak va Uchqizil neft bazalari negizida 1936-yili Termiz shahrida „Termizneft“ tresti tashkil qilindi³⁴.

1936 yil “Voroshilovneft” tresti tashkil etilganidan boshlab, vohada yangi ish o‘rinlari, neftchilik kasbi paydo bo‘ldi. 1938-yilda trestda 2873 ish o‘rnida 1598 nafar neftchi ishladi³⁵.

Surxondaryo okrugidagi Xovdak va Uchqizil korxonalarida ko‘p miqdorda neft chiqarila boshlandi. 1939- yildan Kakaydida 2 ta yangi neft konidan sanoat nefti olindi. 1939- yilda faqat Xovdak neft konining o‘zidan 1938-yilga nisbatan uch marta ko‘p neft olindi. 1940-yilda Respublikada neft qazib olinadigan konlar soni 11 taga yetdi³⁶.

Xovdak neft koni jamoasi 1935-1940 yillarda 8 855 400 tonna sanoat nefti qazib chiqarib, respublika neft sanoati xodimlari orasida munosib o‘rinni egalladi³⁷. 1940 yilda O‘zbekiston neftchilari mamlakatga 119 ming tonna neft yetkazib berdilar³⁸.

1944-yilning oxiriga kelib Lalmikor neft konlaridan neft olish miqdori 2 barobar oshdi va 126,6 ming tonnani tashkil qildi³⁹. Xovdak neft koni ishchilari 1944-yilning ikkinchi yarmida 11 926 tonna neft o‘rniga 126199 tonna neft qazib olib Respublika neftchilarining Ko‘chma Qizil bayrog‘ini qo‘lga kiritdilar⁴⁰.

Urush yillarida vohada qazib olinadigan neft miqdori 20 ming tonnaga yetdi. 1941-1945 yillarda Xovdak neft konidan 199672 ming tonna, Kakaydi neft konidan esa 257467 ming tonna neft qazib olindi⁴¹.

Ikkinci jahon urushi yillarida xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan neft mahsulotlari oldingi yillar ichida qazib olingan neftlarga nisbatan 3 marta o‘sdi⁴². Urush yillarida viloyat neftchilari 441 500 tonna neft qazib chiqardilar⁴³.

Vohada ko‘mir konlarini aniqlash ishlari ham o‘tgan asrning 30 yillaridan boshlangan edi. 1934-yilda yuksak yonuv xususiyatiga ega bo‘lgan Sharg‘un ko‘mir koni aniqlandi. Shundan so‘ng konni ishga tushirish ishlari olib borildi. Biroq urush sabab uzoq vaqtadan so‘ng, ya’ni 1943-yilda ishga tushdi.

³² Gubkin I.M. “O‘rta Osiyo nefti uchun”, 1934 yil sentyabr.

³³ Yoriev B. Qora oltin ijodkorlari. – Termiz, 1999. – B.51.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. - Toshkent. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1998. 37-bet.

³⁵ Ilg‘or Surxon uchun. 1937-yil, 2-avgust.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – Toshkent. 1998. 37-bet.

³⁷ Jarqo‘rg‘on neft kompaniyasining joriy arxiv. 2000 y. – B.1.

³⁸ O‘zSSR tarixi, II tom, - Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1958. – B 370.

³⁹ Xotira (Surxondaryo viloyati). – Toshkent: "A.Qodiriy nashriyoti". 1994. 6-bet.

⁴⁰ Qobulov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – Termiz, Jayxun, 1993.- B.22.

⁴¹ Sayfullo Tursunov., Abdug‘ani To‘xtayev., Zarifa Annayeva. Jarqo‘rg‘on tarixidan lavhalar. – B. 79.

⁴² Ilg‘or Surxon uchun. 1944-yil, 8-fevral

⁴³ Avliyoqulov Q. va boshqalar. Surxon yuduzlari. – Toshkent: "A.Qodiriy nashriyoti". 1995. 23-bet.

Sharg‘un ko‘mir konining ishga tushishi respublikada ko‘mir qazib chiqarishning ortishiga olib keldi. Misol uchun respublikada 1940-yilda 3,4 ming tonna ko‘mir qazib olingan bo‘lsa, 1945 yilga kelib bu ko‘rsatkich 103 ming tonnani tashkil etdi⁴⁴.

Hududdagi ikkinchi ko‘mir koni bo‘lmish To‘da konini ishga tushirish ishlari 1942-1944 yillarda amalga oshirildi. 1942-yil 4-sentyabrda asosan rayon ijroqo‘mining 43-sonli qaroriga asosan To‘da ko‘mir koni temir yo‘li qurilishi uchun 264,23 hektar yer ajratildi. Sayrob qishloq kengashidagi “Lenin” nomli jamoa xo‘jaligidan 80 hektar, “Kalinin” jamoa xo‘jaligidan 35 hektar, “Voroshilov” jamoa xo‘jaligidan 13 hektar, Xo‘jabulg‘on qishlog‘i hududidagi “Telman” jamoa xo‘jaligidan 23 hektar, “Zarbdor” jamoa xo‘jaligidan 38,68 hektar, “Traktor” jamoa xo‘jaligidan 50 hektar, “Molotov” jamoa xo‘jaliklaridan 23 hektar yer ajratildi⁴⁵.

Xullas, iqtisodiy jihatdan Surxon vohasi agrar-sanoat hududi sifatida ulkan tabiiy xomashyo zaxiralariga ega bo‘lishiga qaramay, mustamlaka va sovet hukumati undan faqat xomashyo bazasi sifatida foydalanib, elektr energetika taraqqiyotiga yetarlicha e’tibor qaratmadni.

Dissertasiyaning **“1946-1990 yillarda Surxon vohasida energetika va yoqilg‘i sanoati”** deb nomlangan ikkinchi bobida 1946-1990 yillarda voha elektr tarmoqlarining faoliyati, yoqilg‘i sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar, rasionalizatorlik va ixtirochilik harakati, ishchilar ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobning **“1946-1990 yillarda voha elektr tarmoqlarining faoliyati va yoqilg‘i sanoatida amalga oshirilgan tadbirlar”** deb nomlangan birinchi paragrafida voha elektr tarmoqlari faoliyatining bir tomonlama ixtisoslashuviga qaratilgan tadbirlar va uning xususiyatlari ochib berilgan.

Ikkinci jahon urushdan keyin ham voha xalq xo‘jaligini va aholini elektr energiyasi bilan to‘la ta’minalash dolzarb vazifa bo‘lib qolaverdi. Sariosiyo tumanidagi “G‘alaba” kolxozida 40 kilovattli kichik GES i urushdan keyin birinchi qurilgan kolxozlararo gidroelektro stansiyadir. U 1947-yil sentyabriga kelib 320 dehqon xonadonlarini elektr energiyasi bilan ta’minaladi⁴⁶.

1947-yilda Sariosiyo tumanining “Pravda”, Uzun tumanining “Voroshilov”, Sho‘rchi tumanining “Molotov”, Termiz tumanning “Chegara kolxozchilari” da kichik gidrostansiyalar qurildi⁴⁷. Ammo bu davrda ham sanoat korxonalari asosan dizel generatorlar yordamida ish olib borgan. Masalan. 1947-yilda Denov paxta tozalash zavodiga 590 ot kuchiga teng bo‘lgan “Bolduin”⁴⁸, Termiz paxta tozalash zavodiga esa 400 ot kuchiga teng dizel generator o‘rnatalgan edi⁴⁹.

⁴⁴Tursunov S. Qobulov E. va boshqalar. Surxondaryo tarix ko‘zgusida. – Toshkent: "Sharq", 2001.- B. 198.

⁴⁵ Boysun tumani joriy arxivni.

⁴⁶ Ilg‘or Surxon uchun, 1947 yil 3 oktyabr.

⁴⁷ Parfenov G.V. Viloyat o‘lkashunoslik muzeyi direktori qo‘lyozmasi. 1947 yil, 4-5 betlar.

⁴⁸ Surxondaryo viloyat davlat arxivni. 70-fond, 1-yozuv, 90-ish, 52 -varaq.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi MA. 2099- fond, 4-ro‘yxat, 609-yig‘ma jild, 5-varaq.

Surxondaryo viloyati qo‘mitasi yig‘ilishida kichik kolxozlararo GES qurilishini keng yoyish uchun 1949-1951 yillarda viloyat tumanlarida kolxozlararo GES qurilishi tasdiqlandi. Unga ko‘ra viloyat bo‘yicha 1949 yilda 81 ta kolxozni elektr bilan ta’minlovchi 4000 kilovatt quvvati bo‘lgan 3 ta kolxoz GES lari, 1950 yilda 59 ta kolxozni elektr bilan ta’minlovchi 3000 kilovatt quvvati bo‘lgan 3 ta kolxoz GES lari qurilishi rejallashtirilgan⁵⁰. Shuningdek, 1949-1950 yillarda viloyat bo‘yicha umumiy kuvvati 435 kilovatt bo‘lgan 15 ta issiklik elektrostansiyasi kurilishi rejasi ham tasdiqlangan⁵¹.

Surxondaryo viloyati sobiq partiya qo‘mitasi va Viloyat Ijroiya Qo‘mitasi 1950-yillarning boshlariga kelib viloyatda Hazarbog‘-1 GES ini qurish ishlariga katta e’tibor bera boshladi⁵².

1952-yil 31-avgustda Sovet Ittifoqi Ministrlar Kengashining «Qumqo‘rg‘on GESi qurilishini tugallash to‘g‘risida» gi 20399-R-sonli qaroriga muvofiq Qumqo‘rg‘on GES i qurilishini tutallash uchun 300 ming so‘m mablag‘ ajratildi⁵³.

XX asrning 50-yillari boshida Surxondaryo viloyati hunarmandchilik ittifoqi Termiz shahar elektr stansiyasidan 320 kilovatt elektr energiyasini ishlab chiqarish va yoritish uchun 1560 kvt istemol qilardi⁵⁴.

1963-yil voha elektr tarmoqlari ish vaqtida 22,5 ming kilovatt kuchga ega bo‘lgan 6 ta energiya poyezdi, 4 ta dizel elektr stansiyasi va 3 ta gidroelektro stansiyalar tashkil qilindi⁵⁵. Bu raqamlar hozirgi o‘lchovimizga nisbatan olganda arzimas darajada bo‘lib tuyuladi, biroq 62,8 mln. kilovatt soat elektr quvvati o‘sha yillar uchun katta yutuq edi. Buning 32604 ming kv.s -Surxondaryo, 30208 ming kv.s -Qashqadaryo viloyati elektrostansiyalarida hosil qilingan edi⁵⁶.

1965-yil yanvariga kelib Qarshi va Shahrisabz tumanlari elektr tarmoqlari Surxondaryo viloyati tarkibidan chiqdi. 1965-yili Jarqo‘rg‘on elektr tarmog‘i uchastkasi ham tashkil etildi. Unga G.I.Fayzulin master etib tayinlandi. Jarqo‘rg‘on tumanining birinchi qaldirg‘och elektr montyorlari-N.Shvedov, Ismoilov, M.Golovchak, Ahmedov, duradgorlar Solihov, elektr nazoratchisi A.Shafigulina, nazoratchi R.A.Salixovalar bo‘ldilar⁵⁷.

1968-yilda 14,5 km uzunlikdagi 35 kilovatt kuchga ega bo‘lgan qiymati 86,2 ming so‘mlik Denov-Uzun elektr uzatkich tarmog‘i ishga tushirildi. Natijada 1968-yilga kelib Sho‘rchi, 1969-yili Termiz, Sarosiyoy, Jarqo‘rg‘on, Sherobod va Gagarin (hozirgi Muzrabot) tumanlari to‘la elektr energiyasi bilan ta’minlab bo‘lindi⁵⁸. Shunday qilib, 1970-yilga kelib Surxon vohasini elektr energiyasi bilan ta’minlash vazifasi to‘laligicha bajarildi.

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi MA. R-837, 33-ro‘yxat, 5673-ish, 7-varaq.

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi MA. R-837, 33-ro‘yxat, 5673-ish, 7-varaq.

⁵² O‘zbekiston Respublikasi MA. R-837, 33-ro‘yxat, 5673-ish, 4-varaq.

⁵³ Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 372.

⁵⁴ O‘sha joyda, B. 372-373.

⁵⁵ Surxon tongi. 1994 yil, 20 sentyabr.

⁵⁶ Dala tadqiqotlari. Surxondaryo elektr boshqarmasi injeneri V.Terexin ma’lumotlari.

⁵⁷ Jarqo‘rg‘on tumani elektr tarmoqlari joriy arxivni.

⁵⁸ Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi – B. 375.

XX asrning 60-yillari o‘rtalarida Termiz, Jarqo‘rg‘on, Angor va Sherobod tumanlari markazlarida 110 kilovatt kuchlanishga ega bo‘lgan podstansiyalar ishga tushirildi. Bularning umumiy quvvati 42,6 ming kilovattni tashkil qilib, 110 kilovatt kuchga ega bo‘lgan elektr energiyasi simyog‘ochlarda 149 kilometr masofaga uzatildi⁵⁹.

Vohada Tojikiston Respublikasi energiyasidan foydalanish 1970-yilda 288,2 million kilovatt soatni tashkil qildi. Bu esa 1965-yildagiga qaraganda 4,5 marta ko‘p elektr energiyasidan foydalanildi degan so‘zdir. 1970-yilda asosiy mahsulotlarning o‘sishi 3041, 7 ming so‘mni tashkil qildi⁶⁰.

1982-yili 110/10 kv kuchlanishga ega bo‘lgan “Hayraton“ podstansiyasi qurilib ishga tushirildi. 1985-yili Afg‘oniston respublikasidagi Mozori Sharifning yordamchi elektr stansiyasiga 110 kv kuchlanishga ega bo‘lgan tarmoq tortildi⁶¹. Shunday qilib Surxondaryo viloyatida elektr energiyasi ishlab chiqarish yil sayin o‘sib bordi.

1947-yilning 7-noyabrida Lalmikor koni korxonasida 11 km uzunlikdag‘i neft quvuri yotqizildi va ikki neft quvuri qazib ochildi va gazlar saqlanadigan idishlar (rezervuar) qurildi. Ikkita tayyorlangan quduqlardan birinchi sanoat neftlari qazib chiqarila boshlandi⁶².

Viloyatda neft qazib chiqarishning oshib borishi, unda mavjud texnikalardan samarali foydalanish maqsadida SSSR Ministrlar Sovetining 1950-yil 6-apreldagi 4778-sonli hamda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1951-yil 7-martdag‘i 356-sonli farmoyishiga asosan Qumqo‘rg‘on gidroelektrostansiyasi neft sanoati tasarrufiga o‘tkazildi⁶³.

Tabiiy gazning o‘sishi ham bu yillarda ko‘payib bordi. Asosan gaz Lalmikor konlaridan olina boshladi. 1967-yil 1 apreliga kelib 49 ta shahar va aholi punktlari, 19 600 ta xonodonlar, 550 ta bolalar bog‘chalari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari gazlashtirildi⁶⁴.

